



MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYALANUVCHILARINING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

**Andijon davlat pedagogika instituti Maktabgacha
ta'lim yo'nalishi 1-bosqich 101-guruh talabasi
Fozilova Masturaxon Ravshanbek qizi**

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15231078>

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotidagi tarbiyalanuvchilarning ijodiy qobiliyatlari, qiziqishlari, o'z xatti-harakatlarini boshqarish va universal faoliyati uchun zarur muhitni yaratish, maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi zamonaviy talablar haqida ma'lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, tarbiyalanuvchi, ijodiy qobiliyat, rivojlantirish, mazmunan boy, o'zgaruvchan, polifunksional, muqobil, hammabop, xavfsiz, oqilona, san'at va tasviriy faoliyat, mahalliy sharoitga moslashtirilgan, shaxsga yo'naltirilgan.

Hayotimizni hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimi haqida gapirganda, Abdulla Avloniy bobomizning dono fikrlarini takror va takror aytishga to'g'ri keladi: ta'lim-tarbiya – biz uchun hayot-mamot masalasidir. Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi.

Shavkat Mirziyoyev, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Hozirgi kunda Respublikamizda uzluksiz ta'limning ilk bosqichi bo'lib hisoblangan maktabgacha ta'lim tashkilotlariga ham juda katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, maktabga tayyorgarlik darajalariga qo'yilayotgan jiddiy talablar bu borada zaruriy nazariy hamda amaliy chora-tadbirlarni olib bormoqda. Bundan asosiy maqsad odatiy harakatlar emas, balki harakatchanlikni, fikrlashni moslashuvchanligini, katta va kichik muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuvni talab etmoqda. Zamonaviy ta'lim sohasida insonning ijodiy qobiliyatlari idrok etishning eng muhim qismi sifatida tan olinishi kerak. Insoniyat tomonidan to'planib borilgan madaniy qadriyatlar odamlarning ijodiy faoliyati natijasidir. Faoliyatga qatnashish maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsini rivojlantiradi.

Tarbiyachining rahbarligi faoliyat mazmunini va uni amalga oshirish usullarini yanada boyitishga, faoliyatni birgalikda rejalashtirish, faoliyat jarayonida hamkorlik hissi, umumiy intilishlar bilan ma'lum natijalarga erishish xulosalarini shakllantirishga yo'llangan bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishning shakl va usullarini erkin tanlash imkoniyatini yaratadi. Ta'lim sohasidagi asosiy natijalar bola tomonidan bilimlarni qay darajada o'zlashtirib olganligi uning rivojlanishiga, shaxsda integrativ xislatlarning shakllanishiga qanchalik xizmat qilgani bilan belgilanadi. Pedagog tomonidan tanlab olingan ta'lim usullari intellektual jarayonlarning shakllanishiga, muammolar yechimiga ijodiy yondashishga, tashabbuskorlikka va mas'uliyatga, o'z faoliyatini boshqara olishga o'rgatishi lozim. Barcha usullarni birlashtirgan holda bolada intellektual qobiliyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan keng qamrovli rivojlanishga erishishimiz mumkin. Bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun birinchi navbatda erkinlikka erishishimiz kerak. Buning uchun bolaning fikrini tinglashimiz, har qanday ijodiy faoliyatga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirishimiz kerak. Bolalarda ijodiy qobiliyatlarini shakllanishi ularda majburiyat va javobgarlik hissini tarkib topishi bilan bog'liq. Mahalliy va xorijiy fanda "ijodkorlik" tushunchasiga ko'plab ta'riflar mavjud. Nemis olimi Norbert Jores shunday yozadi "Ijodkorlik muammolarning yangi yechimlarini topish yoki ifoda etishning yangi usullarini kashf etish qobiliyati. Shaxs uchun hayotga yangi narsalarni olib kelish". Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, shaxsning ijodiy faoliyatini rivojlantirish erta bolalikdan, bola kattalar rahbarligida turli



xil faoliyat turlarini, shu jumladan, badiiy faoliyatni o'zlashtira boshlagan paytdan boshlab amalga oshirilishi kerak. Ijodkorlikni rivojlantirishda katta imkoniyatlar tasviriy faoliyat va birinchi navbatda rasm chizishni o'z ichiga oladi. Bolani hayotdagi va san'atdagi go'zallikni to'g'ri va yetarli darajada qadrlashga o'rgatish, uni yaratish, uning dunyosini shunday muhim fazilatlar bilan boyitish demakdir. Ularsiz barkamol shaxs mavjud bo'lishi mumkin emas. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- San'at va tasviriy faoliyat (Rasm chizish, bo'yash, loy va plastilin haykalchalar yasash);
- musiqiy ijodkorlik (Ovoz chiqarish, kuylash, qo'shiqlar o'rganish);
- badiiy so'z va hikoya qilish (Ertak, she'r va hikoyalarni ifodali yod olish va aytib berish, hikoya to'qish va davom ettirish, matn asosida sahnalashtirish);
- harakat va jimoniy ijodkorlik (Raqs va pantomima, rolli o'yinlar va drammatizatsiya, o'z-o'zini ifodalash harakatlari);
- konstruktiv va texnik ijodkorlik (Qurish va modellashtirish, oddiy mehanik qurilmalar yaratish);
- o'yin orqali ijodiy rivojlantirish (Rolli va syujetli o'yinlar, muammo yechish bilan bog'liq topshiriqlar, fantaziya va tafakkurni rivojlantiruvchi o'yinlar).

Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ularga erkinlik berish, ularning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash va ijodiy muhit yaratish muhim. Maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlantiruvchi muhit haqida ham so'z yuritadigan bo'lsak, rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning yoshi, individual xususiyatlari va ehtiyojlarini, shuningdek, mintaqaning madaniy va tarixiy xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlantiruvchi muhit mazmuniga quyidagilar kiradi:

- Mazmunan boy – davlat o'quv dasturining mazmuniga mos kelishi, materiallar, jihozlar va xona va bino tashqarisidagi inventarlarning xilma-xilligi;
- o'zgaruvchan – ta'lim va tarbiya jarayoni vaziyatiga, shuningdek, bolalarning qiziqishlari va imkoniyatlarining o'zgarishiga qarab rivojlantiruvchi muhitda o'zgarishlar bo'lish imkoniyatini nazarda tutadi;
- polifunksional – rivojlantiruvchi muhitning turli tarkibiy qismlaridan xilma-xil foydalanish imkoniyati;
- muqobil – guruhda turli joylar, rivojlanish markazlari, shuningdek, bolalarning erkin tanlovini ta'minlaydigan turli xil materiallar, o'yinlar, o'yinchoqlar va jihozlarning mavjudligi; o'yin materialining muntazam ravishda o'zgartirilishi, bolalarning o'yin, harakat, bilish va tadqiqot faoliyatini rag'batlantiradigan yangi buyum va ashyolarning paydo bo'lishi;
- hammabop – tarbiyalanuvchilarning, shu jumladan, a'lohida ta'lim olish ehtiyojiga ega bo'lgan bolalar uchun ta'lim va tarbiya jarayonida foydalaniladigan barcha faoliyat turlarini ta'minlaydigan o'yinchoqlar, qo'llanmalar, resurslar bilan ta'minlanganligi;
- xavfsiz – barcha elementlarni ulardan foydalanishning ishonchliligini va xavfsizligini ta'minlash talablariga muvofiqligini nazarda tutadi;
- oqilona – davlat o'quv dasturi va davlat talablariga muvofiq zamonaviy rivojlantiruvchi muhitni yaratish, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotining turli ta'lim dasturlarini amalga oshirishni ta'minlash uchun barcha imkoniyatlardan foydalanish (inklyuziv ta'lim tashkil etilgan taqdirda, zarur shart-sharoitlarni ta'minlash);
- mahalliy sharoitga moslashtirilgan – madaniy va tarixiy qadriyatlarga, milliy va mintaqaviy an'analarga, tabiatga, iqlimga bog'liq xususiyatlar, hududdagi sanoat rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlariga mos bo'lishi;
- shaxsga yo'naltirilgan – pedagog har bir bolaning o'z qiziqishiga ko'ra shug'ullanishini ta'minlash kerak (bolalar guruh muhitida osongina harakat qilishadi, qayerda nima joylashganini biladilar, o'yinchoqlar va barcha resurslardan erkin foydalana oladilar).¹

¹ "ILK QADAM" davlat o'quv dasturi /Takomillashtirilgan ikkinchi nashr/ 30 b.



Bundan tashqari maktabgacha ta'lim tashkilotidagi mashg'ulotlarida pedagog ya'ni tarbiyachi "Steam" uslubida ham foydalanib boradi. Steam ya'ni, S-fan, T-texnologiya, E-muhandislik, A-san'at, M-matematika. Ya'ni, ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani birlashtiruvchi zamonaviy yondashuv. Steam uslubi – ixtirochilar, kashfiyotchilarning kelajak avlodi, olim sifatida tadqiqotlar olib borish, texnologiyani shakllantirish, muhandis, loyihalash, rassom sifatida yaratuvchi, matematik sifatida analitik fikr yuritishni o'yin orqali yuzaga keltiradi. Steam uslubi yana bolalarda bir qancha muhim xususiyatlarni rivojlantirishga yordam beradi ya'ni, muammolarni keng qamrovli tushunish, ijodiy fikrlash, muhandislik yondashuv, tanqidiy fikrlash, ilmiy me'todlarni tushunish va qo'llash hamda dizayn asoslarini tushunishlarni o'z ichiga oladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida olib boriladigan mashg'ulotlar jarayonida bolalar mahoratlari bilan ajralib turadilar. Bolalar ijodlarini kuzatib borar ekanmiz, ularning turli-tuman ishlarni o'rganish hamda tahlil qilish tushunchalarga ega bo'lganliklarining guvohi bo'lib boramiz.

Ushbu maqola yuzasidan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bolalarning jismoniy, aqliy, ijtimoiy va psixologik rivojlanishini ta'minlash, ularning bilim, ko'nikma va qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil fikrlash, muloqot qilish, ijodkorlik va o'z-o'zini tarbiyalash ko'nikmalarini shakllantirish bu maktabgacha ta'lim tashkiloti va nafaqat pedagog hodimlarning balki, bugungi yangi O'zbekistonning oldida turgan dolzarb vazifalardan biri desak notog'ri bo'lmaydi. Zero, insoniyat jamiyatining kelajakda qay darajada taraqqiy etishi yosh avlodning ijodiy salohiyatini belgilab beradi. Shunday ekan, oldimizga bosh maqsad qo'ygan holda maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanayotgan bolalarda komillik sifatlarini takomillashtirish, zamonaviy, axloqiy-amaliy o'quv, malaka, ko'nikmalar bilan qurollantira borish, mutaxassislarda esa har bir rivojlantiruvchi sohaga mos ilm, bilim, ko'nikmalar hosil qilgan holda zamonaviy fan asoslarini amaliyotda qo'llashimiz zarur deb hisoblayman. Yana shuni ta'kidlab o'tish kerakki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, birinchidan, bolalarni bilim, ko'nikma va malakalarini oson va qiziqib o'rganishlari uchun imkoniyat yaratsa, ikkinchidan, ularni har tomonlama mukammal kamol topishiga, ham ma'naviy rivojlanishiga yordam beradi. Shu bilan birga bolaning ijodiy tafakkurini hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. "Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish" o'quv-uslubiy majmua Abdullajonova D. Andijon, 2024;
2. Maktabgacha ta'limda steam texnologiyasi Berdiyeva M.M, G'afforova X.N, Choriyeva S.CH T.: 2023
3. Pedagogika nazariyasi va tarixi Egamberdiyeva F, Toshov M. Toshkent 2023 yil;
4. Maktabgacha pedagogika Esonova M.A. Toshkent 2023 yil;
5. Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish. Oxunov I.A. Andijon 2024 yil;
6. Maktabgacha pedagogika Qodirova F.R, Toshpo'latova SH.Q, Kayumova N.M, A'zamova M.N. Toshkent-2019;
7. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi 2022 yil;
8. Sodiqova Sh.A. "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur sarchashmalari" T.: 2013 y.- 288 bet.
9. Xoliqov. A.A. Pedagogik mahorat. Darslik. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: Iqtisod-moliya, 2011 y. -420 bet.

Internet saytlari:

10. <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/2002/1533>;
11. <https://intereuroconf.com/index.php/APSEFMCH/article/view/5620/4110>.
12. <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-ta-lim-yoshdagi-bolalarning-ijodiy-qobiliyatlarini-rivojlantirishda-ta-limiy-muhitni-tashkil-etishning-o-ziga-xosligi/viewer>